



BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI O'RGANISH

Meleboyev Mirkomil Xabibulayevich

Oriental universiteti Filologiya fakulteti dekani

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi shart-sharoitlari va ularni rivojlantirishga qo'yilgan talablar keltirilgan.

Kalit so'zlat: Kreativ, ijodkorlik, ilmiy-amaliy, seminarlar, tanlovlar, konferensiyalar, interfaol metodlar.

Kreativ fikrlash bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil ravishda qaror qabul qilish va shular asosida harakat qilish sifatlarini rivojlantirish, boshlang'ich yo'nalishining ustivor vazifasi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishini tayyorgarlik bo'yicha o'quv-me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Ta'lim muhitining asosiy vazifasi bo'lajak o'qituvchilarining bilim egallashi uchun imkoniyatlar yaratish, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv muhitida bo'lajak o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish qo'yidagi ilmiy maqsadlarni ko'zlaydi: bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqishini orttirish va ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan ijodkorlik yondashuvlarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim ishlarida faol ishtirokini ta'minlash to'garaklar, ilmiy konferensiyalar;

eng yaxshi ilmiy tadqiqot ishlari uchun tanlovlar o'tkazish va ularni taqdirlash;

"ilmiy-amaliy seminarlarni tashkil e'tish va ularni o'tkazishra doir malakalarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil ilmiy"

tadqiqotlarda qatnashishi va ilmiy tadqiqot olib borishda duch keladigan muammolarga yechim topish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga yordamlashish;

konferensiyalar, seminarlar, tanlovlar, mutaxassisliklar va fanlar bo'yicha olimpiadalar, munozara klublari, ilmiy ishlar tanlovlari;



bo'lajak o'qituvchilarni rejalashtirilgan ilmiy konferensiyalar, seminarlar, tanlovlar va boshqa imliy tadbirlar, ularda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish;

bo'lajak o'qituvchilari bilan boshqa oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida aloqalarni o'rnatish va hamkorlikni rivojlantirish;

“ilmiy-pedagogik muammolarni mustaqil ravishda hal qilish metodikasi va uning usullarini o'rgatishra doir ko'nikma va malakalarini rivojlantirish”.

Mashg'ulot rahbarlarining “bo'lajak o'qituvchilari bilan kirishuvchanlik va ijtimoiylashtiruvchilik funksiyalari bo'lajak o'qituvchilariga shaxsiy-hissiy ta'sir ko'rsatuvchi imkoniyatlarni izohlab, ijtimoiy madaniy vaziyatlarni o'zgarishi sharoitida ta'lim jarayonidagi bo'lajak o'qituvchilarining shakllanishlariga ta'sir ko'rsatadi” [1].

Ta'lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish ta'lim oluvchilar ijodiy faoliyatning muayyan turini o'zlashtirishlarini taqozo qiladi. Ijodiy faoliyatning mazkur turi aksariyat hollarda kasbiy ko'nikma va o'ziga xos xarakterga ega bo'lishi lozim.

Bunda bilim, ko'nikma va malakalar o'rniga o'quv harakatlarining yengilligi yoki murakkablik darajalari baholanadi. Bo'lajak o'qituvchilariga taqdim etilgan o'quv faoliyatini tez va oson bajarsa, ular izchil tarzda ijodiy faoliyat tajribasini ham o'zlashtiradilar. Agar bo'lajak o'qituvchilar mazkur o'quv harakatlarini bajarish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelsa, ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirish mashqlarini davom ettirishlari kerak. Muayyan topshiriqlarni bajarish xarakteri emas, balki bunday turdagi mashqlarni bajarish mustaqilligining darajasi baholanishi lozim [2]-diya ta'kidlanadi.

Interfaol metodlar bugungi kunda mashg'ulot rahbari faoliyati uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarining innovatsiyalarga oid kasbiy bilim va malakalarini rivojlantirish uchun ularning kreativ sifatlarini rivojlantirish talab etiladi. Pedagogik innovatsiyalar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, ular pedagogik izlanishlar natijasi, ilg'or pedagogik tajribalar mahsulidir.

“Innovatsiya” so'zining ma'nosi “yangilik” tushunchasini ifodalab, ta'lim jarayonidagi yangiliklarni kiritish va uni o'zgartirish demakdir. Innovatsiyalar pedagogik vosita va jarayon sifatida o'quv jarayoniga yangiliklar kiritishni taqozo qiladi.



Ta'lim jarayonida o'rganiladigan yangiliklar, uning maqsadi, mazmuni, metodlar va shakllari, mashg'ulot rahbari hamda bo'lajak o'qituvchilarining hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil etish usullarini o'zgartirishni talab qiladi.

Ikkinchi tomondan mashg'ulot rahbarining kreativligi muhim ahamiyat kasb etib, uning yordamida yangiliklar yaratiladi va amaliyotga joriy etiladi. Shu sababli ham texnologik jarayonlarning mazmuni va amalga oshirish mexanizmlarini o'zlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb e'tadi. Ushbu vaziyatlar ta'lim muassasalarida interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini rivojlantirish asosida o'zlashtirish va qo'llashning yangi mexanizmlarini mujassamlashtiradi.

Mazkur vazifalarni talab darajasida amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchilari quyidagi fazilatlarni o'zlashtirgan bo'lishi talab etiladi. Kreativ sifatlarini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarining o'quv jarayonida, ularni mustahkamlash va shakllantirish amaliy mashg'ulotlar hamda malakaviy amaliyot jarayonida amalga oshirilishi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Avazboyev A.I., Pardaboyev J.E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye 2018. 8. B. 20-25.
2. Mansurova M.X. "Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologilar va o'qituvchi kreativligining ahamiyati". "Science and education" scientific journal".
<https://www.iiste.org/>.